

IMPORTANCE OF LINGUOPRAGMATICS IN APHORISMS

Dildora Baratova

PhD student,

Faculty of Foreign Philology

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

dildorabaratova93@gmail.com

Abstract: *In this article, the history of the development of linguopragmatics, different views of different scholars, the subject of this field and aphorisms are analyzed from linguopragmatic point of view.*

Keywords: *aphorism, linguopragmatics, context, text linguistics, maxim, gnome, interpersonal communication*

AFORIZMLARDA LINGVOPRAGMATIKANING AHAMIYATI

Dildora Baratova

2-kurs tayanch doktorant,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

dildorabaratova93@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada lingvopragmatikaning rivojlanish tarixi, unga berilgan turli olimlarning turlicha qarashlari, bu sohaning predmeti hamda aforizmlarni lingvopragmatik jihatdan tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *aforizm, lingvopragmatika, kontekst, matn lingvistikasi, maksima, gnoma, shaxslararo muloqot*

Aforizm atamasi hozirgi kunda tilshunoslik, adabiyotshunoslik hamda falsafa sohasida dolzarb muhokamalarga sabab bo'luvchi omillardan biridir. Ushbu terminga ta'riflar, qarashlar olimlarda turlicha bo'lgan. Aforizmlardagi chuqur mazmun, keskin kinoya va kesatliqlarning berilishi uning ma'no mazmunini yanada o'quvchi uchun tushunarli aniq yetqazib berish uchun xizmat qiladi. Ushbu termin qadim zamonlardan beri mavjud bo'lib, unda xalqning madaniy, ma'naviy merosi, uning tarixi aks ettiriladigan hikmatli so'zlar ham desak mubolag'a bo'lmaydi. Biroq aforizmlarning nutqda foydalanish namunalari qadim o'tmishimizga borib taqaladi hamda odamlar o'z fikrlarini ta'sirli bayon qilishga harakat qilishgan va

qadimgi Misrga oid papirus, mixxat yozuvlarida o‘sha davrga xos hikmatli so‘zlar, maqollar yozib qoldirilgan. [1. 20-23]

Aforizm birinchi marta yunon faylsufi Gippokratning tibbiyotga tegishli ishlarda qo‘llangan. U o‘zining kasalliklar haqidagi asarida “Umr qisqa, san’at abadiydir “ degan jumla bilan boshlagan, keyingi davrlarda esa ushbu jumla o‘ziga hikmatli ma’no kasb eta boshlagan va aforizm darajasiga ko‘tarilgan. [2. 34-50]

Tibbiy atamaga qo‘shimcha ravishda, bu so‘zning “maksima”, “gnoma”, “zariflik” kabi variantlari qo‘llanila boshladi. [3. 12] Demak ushbu termin faqat aforizm so‘zi bilan emas balki qator boshqa so‘z ekvivalentlari bilan ham izohlangan. O‘tmishda faqat ushbu atama tibbiyotda foydalanilgan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib ushbu tushunchani jamiyatning ko‘pgina sohalarida ham uchratishimiz mumkin.

Aforizmlarga tegishli aynan bir mezonlar yo‘q bo‘lganligi sababli ular yaratilishi jaroyonida mualliflar aksariyat hollarda aforizmlar qisqa tushuntirishlar orqali keng ommaga yetkaziladi. Bunda aforizmlarning ham yetkazilayotgan axborot qisqaligi va so‘zlar soniga ham e’tibor qaratiladi. So‘zlar soni qanchalik kam qo‘llanilsa uning mazmuni kengayib boradi, lekin yetkazilayotgan axborot esa qisqa usulda yetkazib beriladi.

So‘nggi paytlarda tilshunoslik, sohasida pragmatika, lingvopragmatik tahlil kabi atamalarni ko‘p uchratib kelmoqdamiz. Aynan aforizmlarni ushbu soha jihatidan talqin va tahlil qilish ham hozirgi paytda eng dolzarb bo‘lgan mavzulardan biridir. Pragmatika sohasiga dunyo olimlari ko‘pgina o‘zlaring fikr va mulohazalarini turli manbalarda keltirib o‘tishgan va bunday turlicha qarashlar bazan biri ikkinchisini fikrini to‘ldirib kelsa, ba’zilar esa biri biriga qarama qarshi kelgan holatlar ham yo‘q emas. Har bir keltirilgan fikr va mulohaza esa o‘zining muhimligi bilan tahlil jarayonlarda o‘z ifodasini topgan. Xususan, J. Layonz pragmalingvistikaning predmetini aniqlash va uni ta’rifini berishga harakat qildi:

“Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axborotni xuddi so‘zlovchi istagandek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo‘llanishini tavsiflaydi. Bu pragmatika lisoniy vositalarning shaxslararo muloqatdagi ro‘lini aniqlash bilan shug‘ullanadi deyish demakdir”. [4. 26] Ushbu ta’rifdan shuni anglash mumkinki, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida muloqot jarayonida so‘zlovchi fikrini bayon etish yuzasidan o‘z maqsadiga erishish uni tushuntira olish g‘oyasi yotadi va uni tahlil etib berishga harakat qiladi.

Pragmalingvistik qarashlarni olimlar tor hamda keng ma’noda tushuntirishga harakat qilishi natijasida ta’riflar orasida o‘zaro qarama qarshiliklar yuzaga kelgandek tuyuladi. Shu o‘rinda tilshunos olim S.Levinson tomonidan keltirilgan ta’rifga yuzlanamiz: “Pragmatika tildan foydalanuvchilarning gaplarining konteksida o‘rinli qo‘llanilayotganligini o‘rganuvchi sohadir”. [5. 419] Tilshunos Levinson tomonidan yoritilgan ushbu ta’rif pragmatikaning faqatgina mazmunni konteksti bilan bog‘liq deya tor ma’noda o‘rganish uchun zamin yaratgan aslida pragmatika sohasi juda katta keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uni idrok etish esa so‘zlovchining qanday til birliklari orqali mohirona yorita olishi va tinglovchiga yetqizib berishiga ham bog‘liqdir.

Lingvopragmatika ta’rifi, uning predmetining tavsifi borasidagi fikrlar qanchalik turli tuman bo‘lmasin, tadqiqotchilar bu borada quyidagi asosoy g‘oyalarga hamfikrdirlar:

- Kommunikativ faoliyat tavsifining tayanch nuqtasi faoliyat tushunchasidir;
- Lison muloqot ishtirikchilarining o‘zaro munosabatini harakatga keltiruvchi vositadir;
- Lisoniy faoliyat voqeanishi bevosita muloqot muhiti bilan bog‘liq hodisadir.

Olmon olimlari pragmatika sohasini keng ma’noda talqin qilish, uni tilshunoslikning umumlashtiruvchi sohasi sifatida e’tirof etishni maqul ko‘rishadi.

Masalan, “Olmon lingvistik qomusi” ning mualliflaridan biri, matn tilshunosligi bo‘yicha yirik mutaxassis Z.Shmidt “pragmalingvistika” va “matn lingvistikasi” tushunchalari yagona bir mazmun anglatishini va ular birgalikda lisoniy muloqot umumiy nazariyasini shakllantirishini hamda ushbu nazariya, kommunikativ tilshunoslik sohasi sifatida, matn grammatikasi va an’anaviy grammatikani ham qamrab olishini isbotlash niyatida ekanligini bildiradi. [6. 233-244]

Aforizmlarni pragmatik jihatdan talqin etadigan bo‘lsak, har bir aforizmda ifodalanadigan matn yoki bo‘lmasa so‘zlar yig‘indisi uning muayyan sohasi bo‘yicha guruhlariga ajratilib talqin qilinadi. Fikrimizni ifodasi sifatida ingliz hamda o‘zbek aforizmlariga murojat qilamiz hamda tahlillarga yuzlanamiz:

Agar o‘zingni ba‘zi o‘rinlarda odobsiz, tarbiyasiz deb his qilsamg, shuning o‘zi odobli shaxs ekanligingni bildiradi.

Mahatma Gandhi

Buyuk hind arbobi, faylasufi Mahatma Gandhi tomonidan keltirilgan ushbu aforizm odob hamda tarbiyaga qaratilgan bo‘lib, aforizmdagi tasvirlangan “odobsiz” va “tarbiyasiz” jumalari orqali muallif o‘quvchiga ushbu hissiyotlarni o‘zida sezgan har qanday inson demakki o‘zini odobli insonlardan biridek hisoblashini uqtirib ta’kidlagan.

Books have to be heavy because the whole world’s inside them

Cornelia Funke

Nemis bolalar yozuvchisi Funke tomonidan keltirilgan ushbu aforizmda kitoblarning og‘ir bo‘lishi haqida so‘z yuritilgan, sababi butun dunyo malumotlari ularning ichida deya ta’rif berilgan. Aslida yozuvchi ushbu aforizmi orqali kitobning og‘irlik jhati ma’nosi nazarda tutilmay, balki undagi berilayotgan mazmun shu qadar teran, aniq hamma uchun foydali ma’lumot va yangiliklarga to‘la bo‘lishi haqida so‘z yuritilgan. Semantik jihatdan ushbu aforizmda zaruriyat funksiyasi ishlatiladi, misraning yanada to‘liq tushuntirilishiga urg‘u beriladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki aforizmlarni lingvopragmatik jihatdan tahlil qilib yoritilganda, muloqot va til birliklari asosiy vosita sanaladi, ma’no jihatidan uni idrok etish esa aforizmni tahlil qilib tushunish jarayonida oydinlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1 Федоренко Н.Т. Афористика. – М.; 1990
- 2 Кулишкина О.Н., Шестлов. Л.В. Афоризм как форма творчества из ничего. – Русская литература. 2003 № 1
- 3 Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University press, 1984.
- 4 Proctedings of the 12 th International Congress of Linguistics. Vienna 1977. (ed. Dressler W). Meid. W. – Innsbruck: Inst. Fur Sprachwissenschaft, 1978
- 5 Schmidt. S. Textthorie./ Pragmalinguistik. In Lexikon der Germanisttischen der linguistic. Niemeyer. 1973.
- 6 Tashpulatova D.X. O‘zbek va ingliz tillaridagi aforizmlarning pragmatik xususiyati hamda ularning korpusda berilishining tamoyillari. Filol.fan.nomz...diss.- Andijon 2023.